ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Nozliya Normurodova**
Samixon Ashirboyev
Abdumurod Tilavov

Mas’ul kotib: Anvarbek Turdialiyev

Tahrir kengashi

Mominova Bag‘dan (Ostona), Mingboyev Nurlon (Chimkent), Ercan Alkaya (Turkiya), Turdimov Shomirza (O‘zRFA), Jo‘raqoziyev Nodirjon (VM), Alniyazov Ayitmurat (Nukus), Xolmanova Zulxumor (ToshDO‘TAU), Ibrohimov Yo‘ldosh (Nukus), Saidqulov Ilhom (ToshDO‘TAU), Murodova Nigora (Navoiy), Jabborov Xo‘jamurod (Qarshi), Darvishev Ibrohim (Namangan), Aliqulova Hulkar (ToshDO‘TAU), Xidraliyeva Zoxira (ToshDO‘TAU), Norboyeva Shukurjon (Urganch), Rahmonov Navro‘z (Navoiy), Ibragimova Zamira (Nukus), Hakimova Muhayyo ToshDO‘TAU), Umurzoqova Marhabo (ToshDO‘TAU), Ubaydullayev Alisher (O‘zMU), Alimardanov Elyor (ToshDO‘TAU), Egamqulov Kamoliddin (ToshDO‘TAU), Qodirov Umarjon (ToshDO‘TAU), Sayfullayev Baurjon (O‘zMPU).

“O‘zbekiston: til va madaniyat jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-oktabrdagi № 308/6-sonli qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. “O‘zbekiston: til va madaniyat jurnalining “Folklorshunoslik. Shevashunoslik” seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro‘yxatidagi “O‘zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, o‘zbek folklorining dolzarb masalalari, o‘zbek dostonchiligi, jahon folklori, folklor janrlari, turkiy xalqlar folklori, folklor va yozma adabiyot, adabiyotimizdagi folklor motivlari, o‘zbek shevalarining fonetik, grammatik va leksik xususiyatlari, tarixiy dialektologiya, shevalarning sotsiolingvistik talqini, areal lingvistika, folklor dialektologiyasi, adabiy til va sheva munosabatlari, sheva ma’lumotlarini o‘zbek tili korpusiga teglash, dialektologiyaning nazariy asoslari, jahon dialektologiyasidagi ilg‘or g‘oyalarga oid tadqiqot natijalari nashr qilinadi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e’lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e’lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-un.uz

MUNDARIJA

Shevashunoslik

Marifatxon Anarbayeva
Turk-Barlos urug‘i nutqida saqlanib qolgan qadimiy turkiy lahja elementlari (Marhamat tumani misolida) 6

Adolat Bekturdiyeva
O‘g‘uz lahjasidagi so‘z birikmalari va yondosh til birliklari 13

Muattarxon Turdixo‘jayeva
O‘zbek tili milliy lingvistik atlasini yaratish tamoyillari 22

Feruza Aminova
Matnazar Abdulhakim she’riyatida morfologik dialektizmlarning aks ettirilishi 29

Durdona Ermatova
The historical development and modern aspects of evidentiality in uzbek language 36

Nazirov Salimbek
Ingliz va o‘zbek tillaridagi ertaklarda uchraydigan barqaror birikmalarni muqobillashtirish masalalari 48

Dilnavoz Asatullayeva
Umumta’lim maktablarida morfonologiyani o‘qitish metodikasi (yozma va og‘zaki nutq misollari asosida) 55

Dilso‘z Rahmonova
Samarqand qipchoq shevalarining areallari 62

Islom Bo‘riyev
Iboralar komponentlari tahlili: O‘TIL (6 jildli; 2022) materiallari asosida 70

Gavhar Toshtemirova
“Gulnor pari” dostonining fonetik -leksik xususiyatlari 80

Rustam Esanov
Xalq ertaklarida qo‘laniladigan ramzlarning lingvistik xususiyatlari . 88

Botir Raxmonov
Til va madaniyat munosabati, etnodialektal birliklarning lingvomadaniy talqini 97

Hayotxon Salayeva
Gurlan leksikasidagi ayrim so‘zlarning “Devonu lug‘otit turk” asari bilan qiyosi 105

Sadoqat Rajabova
Ishtixon shevasining o‘z va o‘zlashma qatlam leksikasi 116

Shahlo Ahmadjonova
Namangan qarluq shevalarining fonetik xususiyatlari va areal lingvistik o‘ziga xosliklari 129

Shirinoy Shuhratova
O‘zbek shevalarida kulolchilik terminlarining o‘rganilishi 138

ISSN 2181-922X 105— *115*

GURLAN LEKSIKASIDAGI AYRIM SO‘ZLARNING “DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARI BILAN QIYOSI

Hayotxon Salayeva[1]

Abstrakt

O‘zbek shevalarini o‘rganishda yangi ishlar amalga oshirilayotganligini inobatga olib, bu ishdan maqsad Xorazm shevalarini, xususan, Gurlan shevasida dehqonchilik jarayonida qo‘llaniladigan so‘zlarni chuqur o‘rganish, ularning o‘z qatlammi yoki chetdan o‘zlashganligini aniqlash, dehqonchilikka oid so‘zlarni mavzuviy guruhlarga ajratish, lug‘atini tuzish hamda adabiy tilimizga munosabatini belgilash va shu orqali dialektal korpusga material sifatida tayyorlash maqsad qilindi.

Ushbu maqolada Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari bilan Gurlan (Xorazm) shevasida dehqonchilik jarayonida qo‘llanilayotgan ayrim so‘zlar qiyosiy-tarixiy metod asosida tahlil qilindi. Boshqa hududdagi sheva elementlari bilan ham qiyos etildi. Shuningdek, “Devonu lug‘otit turk” asari hamda u bilan bog‘liq ilmiy ishlar haqida ham fikr yuritildi.

Ishda Gurlan shevasida dehqonchilik jarayonida qo‘llaniladigan so‘zlar sinchiklab o‘rganiladi, shevaga boshqa tillarning ta’siri ham e’tiborga olinadi. Tadqiqot shevalardagi o‘ziga xos leksikani o‘rganish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: sheva, “Devonu lug‘otit turk”, Gurlan (Xorazm) shevasi, leksik birlik, dehqonchilik, g‘alla, dehqon, fonetik, semantik, areal, lahja.

Fan va madaniyatning mislsiz yutuqlarni qo‘lga kiritishi, shuningdek, matbuot, radio, televideniye hamda internet aloqalarning aholiga kundalik ta’siri natijasida hududiy dialektlarning qo‘llanish doirasi keskin torayib, asta-sekin yo‘qolib borish jarayoni tezlashmoqda. Shu bois tilshunoslikning ajralmas bir qismi bo‘lmish lahja va shevalar leksik grammatik xususiyatlarini tavsifiy, qiyosiy, qiyosiy-tarixiy yo‘nalishda o‘rganish

[1]*Salayeva Hayotxon* - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti
E-mail: salayevahayot01@gmail.com
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0007-1377-0847
Iqtibos uchun: *Salayeva H.* 2025. *“Gurlan leksikasidagi ayrim so‘zlarning “Devonu lug‘otit turk” asari bilan qiyosi”.* O‘zbekiston: til va madaniyat. Folklorshunoslik. Shevashunoslik 3: 105-115. Doi. 10.52773/tsuull.uzlcfolklore.2025/ZHZO3204

shevashunoslikning anchagina muammolarini bartaraf qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday birliklarning geografik tarqalishini aniqlab, mavjud shevalar so‘z boyligini to‘plash, leksik-semantik, diaxron va sinxron aspektlarda o‘rganish davr talabiga aylangan. Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, “o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlari, shevalari, tarixiy taraqqiyoti, uning istiqboli bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilashga erishmog‘imiz zarur”[https://lex.uz/docs/4561730]. Bu borada, avvalo, adabiy tilning, qolaversa, har bir tilning asosi sanaluvchi muayyan shevalar tadqiqining o‘rni beqiyosdir. Keyingi yillarda ona tilimiz har tomonlama ravnaq topib, huquqiy maqomi mustahkamlanishi bilan birgalikda qo‘llanish doirasi kengayib bormoqda. Istiqlol yillarida milliy o‘zlikni anglashda, ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan tarixiy manbalarni tadqiq etishda, bugungi kunda jahon iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy yutuqlari bilan tanishishda ona tilimiz ko‘prik vazifasini o‘tashi bilan birgalikda jamiyat tafakkuri shakllanishiga ham o‘z hissasini qo‘shmoqda. Shu bilan birga, adabiy tilimizning bir bo‘lagi hisoblangan o‘zbek dialektlari bo‘yicha bugungi kunda fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish, turkiy tillar ichida eng boy, rang barang lahjalarga ega bo‘lgan o‘zbek shevashunosligi bo‘yicha ilmiy ekspeditsiya va izlanishlarni uzviy amalga oshirish maqsadida Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universitetining tashkil qilinganligi ayni muddao bo‘ldi. Aytish kerakki, sheva va lahjalarning ko‘plab lisoniy birliklarida tilimizning qadimiy va ko‘hna xususiyatlari hamon saqlanib kelmoqda. Ularda xalqimiz tarixi, etnografiyasi, madaniyati va ma’naviyatining ko‘plab qirralarini o‘zida yorqin ifoda qilgan noyob dalillar bor. Xorazm qipchoq shevalarini hozirgi o‘zbek adabiy tili bilan qiyoslab o‘rganish birgina shevashunoslik uchun emas, balki bir qator turkiy tillar dialektologiyasi uchun ham ilmiy qimmatga ega. Ana shunday bebaho boyligimizni o‘z vaqtida to‘plab qolish, ularni ilmiy-amaliy tahlil qilish hamda bugungi mustaqillik davri madaniyatiga xizmat qildirish ushbu tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi. Jahon tilshunosligida dialektlarning o‘rganilishi yangi bosqichga kirmoqda. Hozirga qadar dialektlar, shevalar, asosan undagi xususiyatlarni qayd qilish va lingvistik geografiya jihatidan o‘rganilgan bo‘lsa, endi u korpus yaratish maqsadida ham o‘rganilmoqdaki, bu ishning dastlabki bosqichi hamon shevalarning leksik, fonetik va morfologik xususiyatlarini o‘rganish bo‘lib qolaveradi. Shevalar korpusini yaratishda eng avvalo uning leksik boyligini aniqlash muhim hisoblanadi. Korpus uchun shevalar lug‘ati to‘liq o‘rganib chiqilishi zarur. Shuning uchun ham mazkur mavzu tanlandi, ya’ni barcha shevalarda qo‘llanayotgan so‘zlarni tavsif qilib olish uchun leksikologik tadqiqot amalga

oshiriladi va uning natijasiga ko‘ra korpus masalasi hal qilinadi. Shu maqsadda biz dastlabki ish sifatida Xorazmning Gurlan tumani doirasida dehqonchilik leksikasini o‘rganishga kirishdik. Ma’lumki, Xorazm shevalari tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, Xorazm shevalarining leksik, fonetik, morfologik, sintaktik jihatlari tadqiqotlar obyekti bo‘lgan. To‘g‘ri, shevaga oid so‘zlarning leksik jihatlarini qiyosiy-tarixiy tadqiq qilish, adabiy til bilan solishtirilib, lug‘atlar tuzish orqali ham o‘rganilgan. Jumladan, Xorazm shevalari Fattoh Abdullayevning “O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi”, Ro‘zim Yo‘ldoshevning “Toshhovuz viloyatidagi o‘zbek shevalarining leksik xususiyatlari”, Otanazar Madrahimovning “O‘zbek tili o‘g‘uz lahjasining Xiva shevasi”, Y.Jumanazarovning “O‘zbek tili janubiy Xorazm (o‘g‘uz) dialektining sintaktik qurilishi” kabi asarlarida o‘z tadqiqini topgan. Biz ham tadqiqotimiz jarayonida ushbu qilingan ilmiy ishlardan foydalangan, ularga tayangan hamda qo‘shimcha fikr bildirgan holda izlanishlar qilishni maqsad qildik. Xorazm shevalari til sathlarining turli jabhalarida o‘rganilgan bo‘lsa ham, biroq ularni guruhlarga ajratgan holda o‘rganish ishlari hali to‘laligicha amalga oshirilmagan. Shu boisdan ham biz tadqiqotimiz jarayonida Gurlan (Xorazm) shevasida dehqonchilik munosabatlarida qo‘llaniladigan so‘zlarni o‘rganishga harakat qilamiz. Bu orqali Xorazm shevalari leksikasini yanada chuqurroq o‘rganish, dehqonchilikka oid so‘zlarni to‘plash hamda ularni qiyosiy-tarixiy metod orqali tavsif etish, arxaik, tarixiy yoki, arab, fors tillaridan o‘zlashgan, yangi kirib kelgan so‘zlar ekanligini aniqlash, ularning adabiy tilimizdagi ma’nolarini izohlash, lug‘atlar to‘plash orqali tilimiz boyligini o‘rganish va saqlashga harakat qilamiz.

“At-tuhfatuz zakiya fil-lug‘atit turkiya” asarida dehqonchilikka xos faoliyat vazifasini (kasb nomlari) anglatuvchi leksemalar ham ishlatilgan. Ularni quyidagicha tavsiflashimiz mumkin: 1. “Tat (tot) – dehqon” [Ат-туҳфатуз закияту фил-луғотит туркия 94]. X.Jabborovning “Dehqonchilik so‘zlarining qisqacha izohli lug‘ati”da: “Dehqon – katta yer egasi, zamindor; qishloq hokimi. Asosiy kasbi yerga ishlov berish, ekin ekishdan iborat bo‘lgan kishi” [Жабборов 2016; 87] – deya ta’riflanadi. Hozirgi kunda tat leksemasidan ushbu tushunchani ifodalashda foydalanishmaydi. Uning o‘rnida dehqon, chakboshi birliklari keng tarqalgan. 2.“Sabanchi (sobonji) – dehqon” [Жабборов 2016; 65]. Sabanchi leksemasi Shimoliy Afg‘onistonda istiqomat qiluvchi o‘zbeklar nutqida ishlatilmaydi, ushbu atama o‘rnida chakboshi, dehqon kabi so‘zlardan foydalaniladi. 3. “Chavurchi (chovurchi) – choriq tikuvchi” [Ат-туҳфатуз закияту фил-луғотит туркия 249]. “Choriqchi – yer haydalganda dala-dashtda kiyishga mo‘ljallab xom teridan choriq tikuvchi” [Жабборов 2016; 45]. Chavurchi leksemasi hozirgi kunda Shimoliy Afg‘oniston

va O‘zbekiston o‘zbeklar nutqida ishlatilmaydi. Mazkur atama eskirgan so‘zlar qatoriga kiradi. Chavurchi leksemasi o‘rnida etikdo‘z, butdo‘z, pinado‘z, mo‘chi kabi muqobillaridan keng foydalanib kelinmoqda. 4.“Battuq (botuq) – suvchi” [Ат-туҳфатуз закияту фил-луғотит туркия 91]. “Mirob – sug‘orish va suv ta’minoti bo‘yicha nozir. Suv ta’minoti va sug‘orish tarmoqlarini nazorat qiluvchi shaxs”[Жабборов 2016; 142]. Battuq leksemasi hozirgi kunda Shimoliy Afg‘oniston va O‘zbekistonda istiqomat qiluvchi o‘zbek dehqonlari nutqida uchramaydi. Ushbu atama eskirgan so‘zlar qatoridan joy olgan bo‘lib, suvchi, mirob birliklari mazkur so‘zning sinonimi sifatida ishlatiladi. Izlanishlarimiz jarayonida ushbu asarda o‘simlik tushunchasini ifodalashda quyidagi leksemalardan foydalanilganligi aniqlandi: 1.“Tamar – o‘simlik” [Ат-туҳфатуз закияту фил-луғотит туркия 253]. Mazkur atama hozirgi kunda Gurlan tumanida istiqomat qiluvchi dehqonlar nutqida uchraydi va ekin yoki biror o‘simlikning ildizi ma’nosida ishlatiladi. 2.“Baqla (boqlo) – o‘simlik”[Ат-туҳфатуз закияту фил-луғотит туркия 253]. Baqla leksemasi eskirgan so‘zlar qatoridan joy olganligi sababli hozirgi kunda sheva vakillari nutqida uchramaydi. 3.“Bitik – o‘simlik” [Ат-туҳфатуз закияту фил-луғотит туркия 185]. Hozirgi kunda Gurlan tumani hududida istiqomat qiluvchi o‘zbek dehqonlari nutqida bitik leksemasi o‘simlik ma’nosini ifodalashda qo‘llanilmaydi.

Shunisi ham borki, bu jarayonlarga bugungi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar ham o‘z ta’siri ko‘rsatadi. Bu o‘zgarishlar tilning leksik sathiga ham ta’sir qiladi. Sheva vakillari tomonidan bunday so‘zlar to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki qisman o‘zgarishlarga uchragan holda ishlatilishi mumkin. Jumladan, Gurlan (Xorazm) shevasi dehqonchilik leksikasida ishlatiladigan so‘zlarni tadqiq etish jarayonida shu narsalarga ham guvoh bo‘lamiz.

Shevalarimiz o‘zbek tilining lisoniy boyligini saqlagan beqiyos manbalar hisoblanadi. Bunga ularni qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tili bilan qiyoslash orqali yanada ishonch hosil qilishimiz mumkin. Shunday manbalardan biri turkiy tillarning ilk lug‘ati bo‘lmish Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk” asaridir. S.Ashirboyev ta’kidlaganlaridek: “Mahmud Koshg‘ariy o‘z davrining ulug‘ dialektologi bo‘lgan. U o‘sha davrning behihoya murakkab vaziyatidagi qabilalarni va ularning tillarini mukammal o‘rganib, aniqlab chiqdi” [Ashirboyev 2023:123]. Bu asarning ahamiyati xususida esa J.Xudoyberdiyevning maqolasida uni topgan shaxsning quyidagi fikrlari berilgan: “… Bu kitob emas, Turkiston o‘lkasidur! Turkiston emas, jumlayi jahondur! Turklik, turk tili bu kitob soyasida chinakam ravnaq topadi! ... Hozirga qadar turk tilida buning kabi kitob yozilgani yo‘q. Bu kitobning haqiqiy bahosi aniqlanmoqchi

bo‘lsa, jahonning xazinalari bunga teng kelolmas…”[Xudoyberdiyev 2006:4]. Darhaqiqat, biz ham yuqoridagi fikrlarga qo‘shilgan holda ushbu asar leksikasi bilan bugungi Gurlan (Xorazm)shevasi dehqonchilik bilan bog‘liq ayrim so‘zlarni qiyoslashga harakat qilamiz.

Ušaq – kichik, mayda narsa [“D.L.T” I,97]. Gurlan (Xorazm) shevasida bu so‘z hozir ham xuddi shu shaklda va ma’noda ishlatiladi. Asosan, guruchning ezilgan mayda bo’laklariga “***ušaq***” deyiladi. Misol uchun: *Burunčdiŋ ušaγïnï tavuqlarγa berämïz.*

Üzük – yerdan siriqib chiqib hovuzga aylangan suv, shuningdek vodiylardan ajrab chiqqan ariqni üzük suv deyiladi. Bu so‘z fonetik o‘zgarishga uchragan holatda “üzäj, ïzäj” shaklida shevamizda qo‘llanmoqda. “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati” da ham bu so‘z quyidagi shaklda kelgan: ***zäjsuv*** (To‘rtko‘l) ***zej//zij (***Mang‘it) zaxob suv: *Mal bagïbatqan ǯerinde zij suvdan bašqa suv joqma* [“O‘.X.Sh.L.” 108]

Orum – o‘rim, tutam; siqim. Bir orum ot – bir o‘rim o‘t, bir tutam o‘t [“D.L.T” I,104]. Gurlan (Xorazm) shevasida ham bu o‘z shaklini saqlagan: *Mallarγa bir orum ot salvär.*

Ekin – ekin; ekiladigan yer [“D.L.T” I,107]. Shevamizda bu so‘zning ma’nosi biroz toraygan. Ekiladigan yer ma’nosida emas, balki dalaga ekiladigan umumiy poliz ekinlariga nisbatan ishlatiladi.

Üjük: üjük jer – suv va boshqa narsalar ko‘pligidan oyoq bosganda botib, uni sug‘irib olish qiyin bo‘lgan joy [“D.L.T” I,113]. Gurlan (Xorazm) shevasida ham bu so‘z “üjük, üjüq” shakllarida ishlatiladi: *Üjüqqa batïp šalï nällädïm.*

Oru – o‘ra. Bug‘doy, sholg‘om va boshqa narsalarni saqlash uchun qazilgan chuqur [“D.L.T” I,115]. Gurlan shevasida bu so‘z bugungi kunda ham saqlangan bo‘lib, o‘ra faqat sabzi va sholg‘omni saqlash uchun foydalaniladi: *Orädän gäšïr alïp ke.*

Äŋïz – angiz; bug‘doy va boshqa donlar o‘rilib olingach, yerda (sochilib) qolganlari to‘kilgan va cho‘p qismi [“D.L.T” I,120]. F.Abdullayevning “O‘zbek tilining Xorazm shevalari” [19] kitobida ham bu so‘z keltirib o‘tilgan, ammo ma’nosi biroz o‘zgargan: ***äŋïz –*** *(Urg, Xiv, Xnq, X-asp)* 1. Ekin olingandan keyin bo‘sh qolgan yer; 2. Ekilmay qolgan yaroqli yer. “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati” da bu so‘z quyidagi shaklda kelgan: ***äŋïz*** (Xorazm) ang‘iz (hosil yig‘ishtirib olingan yer, quruq yer) [“O‘.X.Sh.L.” 18]

Arïtg‘an – tozalaydigan. *Ol kiši ol tarig‘ arïtg‘an – U kishi har doim bug‘doy va boshqalarni tozalaydi* [“D.L.T” I,170]. F.Abdullayevning “O‘zbek tilining Xorazm shevalari” [19] kitobida ham *“arïtmaq”* shaklida kelib ma’nosi *“tozalamoq”* deya izohlangan. “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati” da bu so‘z quyidagi shaklda kelgan: ***arïnmaq*** (To‘rtko‘l) tozalamoq [“O‘.X.Sh.L.” 20]. Bugungi kunda ham Gurlan shevasida shu ma’noda qo‘llanadi: *Sumäläkkä büγdaj arttïq.*

Ündi – undi. *Ot ündi – o‘t ko‘kardi, undi* [“D.L.T” I,181]. Shevamizda ham *ündi* so‘zi o‘z shaklini va ma’nosini saqlagan: *Büγdaj ündi.*

Ekdi – ekdi. *Ol tarïg‘ ekdi – U don ekdi* [“D.L.T” I,180]. Nafaqat Gurlan shevasida, balki adabiy tilimizda ham bugungi kunda ayni shu shaklda qo‘llanilib kelmoqda: *Dädäm atïzγa mäš ektï.*

Ordï – o‘rdi. *Ol ot ordï – U o‘t o‘rdi* [“D.L.T” I,183]. Bu so‘z hozir ham shevamizda faol ishlatiladi, hech qanday fonetik yoki semantik o‘zgarishga uchramagan: *Ukäm bïlän mallarγa ot ordïq.*

Ojdï - *Ol qag‘un ojdï – U qovun o‘ydi.* (Qovun so‘yishda dumidan ozgina bir bo‘lakni o‘yib olish) [“D.L.T” I,185]. Gurlan shevasida ham qovun yoki tarvuz so‘yishda *“ojdï”* fe’li qo‘llaniladi.

Alardï – rang keltirdi (uzum va boshqa meva rang keltirdi) [“D.L.T” I,188]. Shevamizda ham xuddi “Devon” da keltirilgan shaklda ishlatiladi.

Üzüšdi – uzishdi. *Ol meŋä üzüm üzüšdi – U menga uzum uzishda yordam berdi* [“D.L.T” I,193]. Bu so‘z shevamizda juda faol. Mevalarni uzishda yoki pomidor, bodring kabi sabzavotlarni uzishda kimdir yordam bersa, “Do‘stim menga bodring uzishga yordam berdi” demasdan, *“Dostïm maŋa bädräŋ üzüšdi”* deb aytiladi.

Ekïšdï – ekishdi. *Ol meŋä tarïg‘ ekišdi – Ekin ekishda u menga yordam qildi* [“D.L.T” I,195]. Bu fe’lni ham Gurlan shevasi bilan qiyoslaydigan bo‘lsak, hozir ham shu shaklda va ma’noda foydalanilayotganini ko‘rishimiz mumkin: *Men dajima xarmïz ekïšdïm.*

Otuldï – *tarïg‘ otuldï* – ekin o‘taldi, o‘toq qilindi. Ekin orasida o‘sib, ekinga zarar keltiruvchi o‘tlar yulib tashlandi [“D.L.T” I,201]. Ushbu so‘z ham shevamizda qisman fonetik o‘zgarishga uchhragan holatda bugungi kunda ham ishlatilib kelinmoqda: *Šalï otaldï.*

Äläŋgä / Lazer / Nüküs – Vohada va Gurlan hududida eng ko‘p ekiladigan sholi navlarining mahalliy talaffuzdagi nomlari.

Sholi va bu jarayonga bog‘liq bir qancha maqollar ham mavjud bo‘lib, sholi yetishtirishning o‘ta og‘ir, sinchkovlik talab qiladigan mehnat ekanligi va agrotexnika qoidalariga rioya qilish zarurati aks etgan.

“Šalï össä – el tojar, süv qurïsa – bel sinar”. Sharhi: Gurlan dehqonlari o‘rtasida sholi rizq-ro‘z manbai hisoblanadi. Sholi hosilining yaxshi bo‘lishi butun tuman to‘kinchiligiga, suvning kamayishi esa iqtisodiy qiyinchilikka (bel sinishiga) qiyoslanadi.

“Palïŋda süvïŋ aqsa, köŋliŋdä čira janar” – sholichilikda eng muhim narsa – uzluksiz suv ta’minoti. Polning suv bilan to‘la turishi dehqonning xotirjamligi va quvonchini ifodalaydi.

Xïrmanga bäräkä – Sholi va bug‘doyni yig‘ib, donidan ajratib olayotgan payti ko‘rgan odamlar hosilning barakali bo‘lishini tilash maqsadida aytadilar. Bunga javoban dehqon ham “Ümrïŋä bäräkä”

deb javob beradilar.

“Otaq qïlsaŋ orarsan, otaq qïlmasaŋ – kürmäk körärsän”. O‘toq (sholi ichidagi begona o‘tlarni yulish) jarayonining ahamiyatini ko‘rsatadi. Mehnat qilmagan dehqon hosil o‘rniga sholining dushmani bo‘lgan kurmak yig‘ib olishi ta’kidlanadi.

“Šalïni mäjsäsindä sijla, bašayïda boj korsätädï”. Sholi dastlab unib chiqqan (maysa) davrida unga alohida parvarish va e’tibor (siylash) kerak. Shundagina u kuzda baland va to‘liq boshoq beradi.

Gurlanliklar kundalik hayotdagi insoniy munosabatlarni, xarakter va holatlarni tasvirlashda sholichilik terminlaridan ko‘chma ma’noda keng foydalanadilar.

“Šalïniŋ ičindä kürmäkdaj bop turïš” – yaxshi, tartibli va olijanob odamlar (sholi) orasida bitta nojo‘ya, yomon yoki yot odamning (kurmakning) ajralib turishiga nisbatan aytiladi.

“Märzädän čïγïb ketïš” – adabiy tildagi “haddidan oshish”, “belgilangan tartib-qoidani buzish” iborasining sholichilikdagi varianti. Polni ushlab turgan marzaning buzilib, suvning tartibsiz oqib ketishiga o‘xshatiladi.

“Süv körgan šalïdaj jašnamaq” – biror xushxabar, moddiy yordam yoki e’tibordan so‘ng kayfiyati ko‘tarilib, o‘ziga kelgan, quvongan insonga nisbatan ishlatiladigan ijobiy o‘xshatish.

“Bürünč üčün kürmäk häm süv ičdï.” – aslida hurmatga loyiq bo‘lmagan, foydasiz bir odamning yaxshi va obro‘li insonlar soyasida (ularga qo‘shilib) ne’matlardan bahramand bo‘lishini ifodalovchi eng mashhur matallardan biridir.

Shuningdek, sholichilik jarayoniga bog‘liq matallar ham xalq orasida keng tarqalgan. Bu matallar asrlar davomida sinovdan o‘tgan tabiiy iqlim sharoitlari va sholi biologiyasi bilan bog‘liq.

“Ijülda süvsagan šalï, avgustda jïγlar.” – iyul oyi sholining naychalash va jadal o‘sish davri hisoblanadi. Agar shu oyda suv vaqtida berilmasa, avgustda boshoqlar bo‘sh (puch) bo‘lib qoladi va hosil nobud bo‘ladi.

“Xïrmanda dästä jančïlar, ǯuvazda bürünč elänär.” – har bir ishning o‘z vaqti-soati va joyi borligini bildiradi. Shuningdek, yakuniy natijaga erishish uchun barcha bosqichlarni (xirmon, yanchish, juvoz) sabr bilan bosib o‘tish kerakligiga ishora qiladi.

Gurlan shevasi Xorazm shevalari tizimida o‘g‘uz va qipchoq lahjalari xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan o‘ziga xos hududiy birlikdir. Dehqonchilik leksikasining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu soha terminologiyasi xalqning ko‘p asrlik dehqonchilik madaniyati, yer va suv bilan bog‘liq hayot tarzi hamda qadimiy an’analarini saqlab qolgan. Shevadagi dehqonchilik so‘zlari tizimli lisoniy hodisa bo‘lib, u nafaqat muloqot vositasi, balki o‘zbek tili tarixiy leksikologiyasini

boyituvchi asosiy manbalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotning xulosasi quyidagi jihatlar bilan belgilanadi:

Hududiy o‘ziga xoslik: Gurlan tumani dehqonchilik leksikasi ilk bor alohida ob’ekt sifatida, zamonaviy tilshunoslik metodlari asosida monografik planda tadqiq etildi.

Sintezlashgan tahlil: Shevada o‘g‘uz va qipchoq unsurlarining dehqonchilik terminlarida namoyon bo‘lish qonuniyatlari hamda ularning o‘zaro ta’sir doirasi aniqlandi.

Leksik-semantik tasnif: Soha so‘zlari dehqonchilik jarayonlari, qurollari va sug‘orish tizimlari kesimida ilk bor mukammal tasniflanib, ularning etimologik qatlamlari (o‘z va o‘zlashgan qatlam) farqlandi.

Arxaik qatlamni aniqlash: Faqatgina ushbu hududga xos bo‘lgan, boshqa shevalarda uchramaydigan yoki iste’moldan chiqib borayotgan qadimiy dehqonchilik atamalari aniqlanib, ilmiy muomalaga kiritildi.

Maqolamizda “Devonu lug‘otit turk” dagi ayrim so‘zlarni bugungi shevalarimiz bilan qiyosini keltirib o‘tdik, holbuki asarda tilimizda bugungacha saqlanib qolgan so‘zlarning ko‘lami anchayin katta. Bu so‘zlar aynan yoki ayrim fonetik, semantik o‘zgarishlarga uchragan holda mahalliy dialektlarda [Ashirboyev 2021:16] qo‘llanilayotganligining guvohi bo‘lamiz. Demak, S.Ashirboyev aytganlaridek: “…o‘zbek tili har uchala etnik guruhlar tilining birlashishi asosida tarkib topgan. Shuning uchun ham bugungi o‘zbek tilida har uchala etnik guruh tillariga xos xususiyatlar saqlanib qolmoqda hamda ular o‘zbek tilining uch lahjasini vujudga keltirgan. Bunday yirik dialektal tarkib hech bir turkiy tilda mavjud emas. Bular, avval ta’kidlanganidek, qarluq, o‘g‘uz va qipchoq lahjalaridir” [Ashirboyev 2021:19]. Shevalarimizni qiyosiy-tarixiy metod orqali tahlil qilish, bugungi kundagi boshqa shevalar bilan qiyoslash bizga tilimizni boyitishga, uning boy ildizlarini aniqlashga yordam beradi.

Adabiyotlar

Ashirboyev S. Areal lingvistika. – Toshkent: Bookmany print, 2023.

Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi – Toshkent: Nodirabegim, 2021.

Абдуллаев Ф. «Девону луғатит турк» асарида ўғуз компонентининг ўрни масаласи // ЎТА. – Тошкент: 1971, № 5, 51-56-бетлар.

Абдуллаев Ф. «Ўзбек тилининг Хоразм шевалари» – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси,1961.

Boboyorov G‘.B.O‘zbek shevalarida “Devonu lug‘ati-t-turk”dagi

so‘zlarning saqlanishi to‘g‘risida // Oltin bitiglar – № 2, 90-111-betlar.

Boltayeva Z. “Devonu lug‘oti-t-turk” asarida Xorazm shevasiga xos fonetik xususiyatlar // Tamaddun nuri, –Toshkent: 2024, – № 6, 56-58-betlar.

Дадабоев Ҳ. «Девону луғотит турк»даги туркий тилларга хос фонетик ва лексик-семантик хусусиятлар ҳақида // Тилшуносликнинг долзарб масалалари. – Тошкент: 2008, 3-9-бетлар.

Ишаев А. «Девону луғатит турк» ва ўзбек шевалари // ЎТА. – Тошкент: 1971, – № 5, 63-67- бетлар.

Маҳмуд Кўшғарий. Девону дуғотит турк. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2017.

Ўзбек халк шевалари луғати. – Тошкент: Ўзбекистон ССР «Фан»,1971.

Худойбердийев Ж. “Девону дуғотит турк” қачон топилган? // Ўзбек адабиёти ва санъати. – Тошкент: 2006, – № 8,4-бет.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони //http://uza.uz/oz/documents/uzbek-tilining-davlat-tili-sifatidagi-nufuzi-vamavqeini-tubd-22-10-2019.

REGARDING THE COMPARISON OF SOME WORDS IN THE FARMING LEXICON OF GURLEN (KHOREZM) DIALECT WITH THE WORK “DEVONI LUGOTIT TURK”

Hayotxon Salayeva[1]

Abstract

Taking into account the fact that new work is being carried out in the study of Uzbek dialects, the aim of this work is to thoroughly study the words used in the process of dekhkonshilik in the Khorezm dialects, especially the Gurlan dialect, to determine whether they are their own layer or have been isolated from the rest, to divide

[1] **Salayeva Hayotxon** - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti agistranti
E-mail: salayevahayot01@gmail.com
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0007-1377-0847
Iqtibos uchun: *Salayeva H.* 2025. “*Regarding the comparison of some words in the farming lexicon of Gurlen (Khorezm) dialect with the work “Devoni lugotit turk”.* Uzbekistan: language and culture 2.105-115.
Doi. 10.52773/tsuull.uzlcfolklore.2025/ZHZO3204

the words related to dekhkonshilik into thematic groups, to compile a dictionary, and to determine their relationship to our literary language, and through this The aim was to prepare the material for the dialect corpus.

In this article, some words used in the process of farming in the Gurlan (Khorezm) dialect were analyzed using the comparative-historical method based on Mahmud Kashgari's work "Devonu lugotit turk". Comparisons were also made with dialect elements from other regions. The work "Devonu lugotit turk" and related scientific works were also discussed.

In the work, the words used in the process of farming in the Gurlan dialect are studied in detail, and the influence of other languages on the dialect is also taken into account. The study serves as a theoretical basis for studying the specific vocabulary of dialects.

Key words: dialect, "Devonu lug'otit turk", Gurlen (Khorezm) dialect, lexical unit, farming, grain, farmer, phonetic, semantic, areal, dialect.

Ashirboyev S. *Areal lingvistika*. – Toshkent: Bookmany print, 2023.

Ashirboyev S. *O'zbek dialektologiyasi* – Toshkent: Nodirabegim, 2021.

Абдуллаев Ф. «*Девону луғатит турк*» *асарида ўғуз компонентининг ўрни масаласи* // ЎТА. – Тошкент: 1971, № 5, 51-56-бетлар.

Абдуллаев Ф. «*Ўзбек тилининг Хоразм шевалари*» – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси,1961.

Boboyorov G'.B. *O'zbek shevalarida "Devonu lug'ati-t-turk"dagi so'zlarning saqlanishi to'g'risida* // Oltin bitiglar № 2, 90-111-betlar.

Boltayeva Z. "*Devonu lug'oti-t-turk" asarida Xorazm shevasiga xos fonetik xususiyatlar* // Tamaddun nuri, –Toshkent: 2024, – № 6, 56-58-betlar.

Дадабоев Ҳ. «*Девону луғотит турк»даги туркий тилларга хос фонетик ва лексик-семантик хусусиятлар ҳақида // Тилшуносликнинг долзарб масалалари*. – Тошкент: 2008, 3-9-бетлар.

Ишаев А. «*Девону луғатит турк» ва ўзбек шевалари* // ЎТА. – Тошкент: 1971, – № 5, 63-67- бетлар.

Маҳмуд Кўшғарий. *Девону дуғотит турк.* – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2017.

Ўзбек халк шевалари луғати. – Тошкент: Ўзбекистон ССР

«Фан»,1971.

Худойбердийев Ж. *“Девону дуғотит турк” қачон топилган*? // Ўзбек адабиёти ва санъати. – Тошкент: 2006, – № 8,4-bet.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги “*Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида*”ги Фармони //http://uza.uz/oz/documents/uzbek-tilining-davlat-tili-sifatidagi-nufuzi-vamavqeini-tubd-22-10-2019.

Jurnal 2017-yil 26-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. No 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 103-uy. Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

E-mail: uzlangcult@gmail.com